

**NAVRO'ZI AYYOM UMAR XAYYOM TALQINIDA**

Farangiz Abdurahmonova

Termiz davlat universiteti

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada rind shoirlarining “malik ul-kalom”i – Umar Xayyom ijodining barjastasi “Navro’znoma” dostoni va uning tarixi haqida so’z yuritiladi. Binobarin, ushbu dostonning kelib chiqish tarixi, yozilish sabablari, syujet va obrazlar tizimi badiiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Navro’z, ruboiy, syujet, kompozitsiya, taxallus, talqin

Annotation: This article discusses the masterpiece of the “king of words” among the roving (rind) poets – the “Nowruznameh” epic by Omar Khayyam, and its historical background. The origin of the epic, reasons for its composition, as well as its plot and system of characters are analyzed from a literary perspective.

Keywords: Nowruz, rubai, plot, composition, pen name, interpretation

Аннотация: В данной статье рассматривается шедевр «малик улы-калома» среди риндов – поэма «Наврузнаме» Омара Хайяма и история её создания. Анализируются происхождение поэмы, причины её написания, сюжет и система образов с литературной точки зрения.

Ключевые слова: Навруз, рубаи, сюжет, композиция, тахаллус, интерпретация

Navro’z – forscha نوروز yangi, روز-kun demakdir, ya’ni “yangi kun” degan ma’noni bildirib fasllar kelinchagi hisoblanmish zumrad bahorda nishonlanadigan eng sevimli bayramlardan biridir. Agar bayramlarni o’z ko’rki va nafosati, tantanasi bo’yicha bir safga tizadigan bo’lsak, bu safning bosh qatorida Navro’z o’z jilvasi bilan qolgan bayramlarni xiralashtirib qo’yadi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Darhaqiqat, bu bayramning naqadar ulug’ va qadrli ekanligini har yili bolajonlar, hatto kattalarning uni intiqlik bilan to’rt ko’zi yo’lda kutishidan bilsak ham bo’ladi.



Ushbu bayram tavsifiga bag'ishlangan eng nodir asar fors-tojik adabiyotining darg'alaridan biri Umar Xayyom ijodidagi "Navro'znoma" asaridir. Avvalo, asar muallifining qalam o'tkirligi va qobiliyat dengizining naqadar chuqurligi haqida mulohaza yuritsak. G'iyosiddin Umar ibn Ibrohim Xayyomiy (Nishopuriy) – adibning to'liq ismidan anglashiladiki, Umar – o'z ismi, Ibrohim – shunday ulug' zotning padari buzrukvori, Nishopuriy – uning taxalluslaridan biri bo'lib, tug'ilgan joyiga nisbat berib atalgan, G'iyosiddin hamda Xayyom-chi?

G'iyosiddin – arabcha dinga quvvat deganidir, ya'ni u yashagan o'rta asrlarda o'z ilm nuri hamda beqiyos aql-idroki bilan oddiy xalqni bahramand etgan mutafakkirlarga shunday nom berilgan. Demak, Umar Xayyom – nafaqat hozirgi asrda, balki o'z davrida ham yuksak e'tibor va hurmatga sazovor, ilm dengizida qolganlarga qaraganda chuqurroq kirishga va ko'proq javohir olishga ulgurgan ulug' olimdir. Xayyom – chodir tikuvchi demakdir, Umar Xayyomning ota-bobolari chodir tikish bilan mashg'ul bo'lib, oilasini tebratganlar. Umar Xayyom nafaqat olim balki juda serqirra ijod egasi, shoir hamda nosirdir. Umar Xayyom desa hatto ruboiylar "qirol" Bobur o'z taxtini bo'shatib beradigan darajada nafis va go'zal ruboiylar bitgan.

Misol uchun:

Bir g'arib ko'nglini qila olsang shod

Yaxshidir yer yuzin qilgandan obod.

Lutfig-la bir dilni qul qila olsang

*Afzaldir yuz qulni qilgandan ozod.*¹

-kabi mashhur umrboqiy ruboiylar muallifi ham aynan Umar Xayyomdir.

Eng qizig'i u ruboiylarini shunchaki ilmiy asarlar yozib zerikkanidan asarlari hoshiyasiga qilqalam ila bitib ketavergan. Agar zerikishdan yozilgan ruboiylar shu qadar adabiyot osmonida to'kin oydek charaqlagan bo'lsa, rostan hafsala bilan juda ham kirishib yozganida bu osmonning mehri olamoroyi bo'lib boshqa adiblarning shuhratiga soya solgan bo'larmidi?!

¹ Umar Xayyom. Ruboiyot. Jamol Kamol tarjimalari. www.ziyouz.com elektron kutubxonasi. 3-b



Shunday iqtidor va iste'dod egasi Umar Xayyom Navro'z ayyomiga bag'ishlab "Navro'znoma" asarini yozgan, uning bu asarini yozishga bu asarning ulug'ligi ham azim tarixga egaligi katta rol o'ynagan. Bir kuni u kishidan bir vafodor do'sti Navro'z qachondan boshlanganligi va qanday tarixga egaligi haqida mufassal gapirib berishini so'rab qoladi. U esa shu kundan Navro'z ayyomi haqida bir hamma sevib o'qiydigan asra yozishi darkorligiga amin bo'ladi va shunday qikib asar yozila boshlaydi. Shunday qilib, bu asrga Xayyomning do'sti o'zi bilmagan holda bilvosita sababchi bo'lib qoladi.

Asar an'anaviy kompozitsion tuzilishga ega, ya'ni undan oldingi yozilgan asarlar ham hamddan – Allohga tavsifdan boshlanadi. Umar Xayyom bu an'anaga sodiq qolgan holda "Mehribon va rahmdil Alloh nomi ila " deya asarini boshlab ta'rifini keltirishning aslo iloji bo'lmagan yagona zot haqida to'xtalib o'tadi. Asarda keltirilishicha, Navro'zning bayram sifatida shakllanishi buyuk Fors podshosi Jamshidga borib taqalar ekan.

Quyosh 365 kun-u kunning to'rtidan bir qismida Hamal burjida yilning bitta nuqtasiga yetib keladi, ya'ni bir yilda bir marta mehr atrofini aylanib chiqadi. Jamshid podsho aynan o'sha kunni Yerning bir marta Quyoshni to'liq aylanib chiqish kunini yangi yil deb e'lon qiladi hamda bu bayramga Navro'z deya nom beradi. Shu kundan boshlab Navro'z katta tantanalar ila nishonlana boshlaydi. Navro'zning kelib chiqishi dalillar bilan aytib o'tilganidan so'ng Navro'zning qanday nishonlanishi hamda ajam podshohlarining odatlari haqida so'z boradi.

Ajam podshohlari shuni odat qilgan ediki, bayram dasturxoni har qachongidan ko'ra to'kinroq, barcha lazzatli taomlar shay holda bo'lishi kerak edi. Bundan tashqari, Navro'z kuni barcha davlatda o'tkazilgan obodonlik va qurilish, ilm-u urfon kabi sohalarda o'tkazilgan islohotlar, o'zgarishlar sarhisob qilinardi. Shuningdek, ular obodonlashtirishga ko'proq e'tibor qaratar edilar. Ayniqsa, adolatni o'zlariga eng yaqin hamroh qilib olganlari ularning xalq manfaatlarini o'ylab ish qilganlarining yorqin dalilidir.



Navro'z kuni podshoh oilasidan bo'lmagan mubadlar mubadi avvalambor soyayi Xudo – hukmdorni vasf qilardilar, undan so'ng esa davlat ishlari va bayram shukuhi avj olar edi.

Navro'z bayrami uchun alohida tayyorgarlik ko'rilar va bu bayram shunchalar fayzli va saodatli o'tardiki, har bir inson har kunini Navro'z bo'lishini chin dildan xohlar edilar.

Ilohi har kuning Navro'z bo'lsin

Iqboli toleying feruz bo'lsin.²

(Ogahiy)

Navro'z farvardin oyida o'kaziladi, bu vaqt bizda 21- martga to'g'ri keladi. Shunday hikoyat keltirilganki, bir kuni Xisravning otasi Xarviz arla dalasini kesib o'tayotganda arpa sug'orilgan edi va u arpadan sizib chiqayotgan suvni ko'rib chanqab ketadi . Bu suvdan totib ko'rgach his qiladiki, bu suv har dardga shifo, farvardin oyida o'sgan arpa suvi keyingi arpa o'sadigan paytga qadar insonni har qanday darddan forig' qiladi.

Boshqa bir hikoyatda aytilishicha, Odam (a.s) bug'doy yeb qo'ygach, behishtdan haydaladi va yerga surgun qilinadi. Yerda unga rizq sifatida bug'doy buyuriladi, lekin qancha bug'doy yesa ham to'ymaydi, shuning uchun iltijo qiladiki, bizga to'ydiradigan taom ber. Shunda Alloh ularga arpa yuboradi va ular uni yegach to'yadi. Shundan so'ng qayerda yashil va gurkiragan arpani ko'rsa yaxshilikka yo'yadi.

Har Navro'zda ham ajam podshohlari aroaning ushbu sirli davosidan ham uning xush yoquvchi ta'midan bahramand bo'lishni xohlaydilar.

Asar nafaqat Navro'z ayyomining madhiga bag'ishlangan, balki ushbu asarda inson hayotining ko'p qirralari va insoniyatga foydali hayvonlarning xil va turlari ham sanab o'tilgan: masalan, lochin, ot kabilarning turlari. Chunonchi, asarning yakunlovchi bobi go'zal yuz fazilatlariga haqidadir. Asarda Tohir ismli bir hokim asirni qamab qo'yadi, lekin shaharning katta-kichiklari undan asirni qo'yib yuborishni

² Ogahiy. VI jidlik asarlar to'plami. I jild. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent-1971. 372-b



iltimos qiladi. Lekin unga kor qilmaydi. Sud bo'ladigan kuni uning zavjasi arz bilan keladi.

Sen erimni qo'yib yuborishing kerak, - deydi.

Chunki men juda kuchli homiy olib kelganman. Hokim homiyning kimligini so'raganida chachvonini ochib yuzini ko'rsatadi va hokim unga tan berib erini qo'yib yuborish-ku mayli, hatto zar to'n ham hadya qiladi. Hikoyatdan ko'rinib turibdiki, inson go'zallikka doim intiladi, darhaqiqat, go'zal yuzlar bilan yashagan inson baxtli bo'ladi. Har tong go'zal insonlarni ko'rib quvnoq va shod bo'ladi bu kayfiyat esa butun kun davom etadi.

To'g'ri, lekin surat va siyrat bir xil bo'lsa, ya'ni har ikkisi mutanosib hamda husnli bo'lsa, nur ustiga a'lo nur!

Umar Xayyomning ushbu asari nafaqat ilmiy qo'llanma, balki zavq-shavq bilan o'qiladigan syujetli o'tkir asardir. Bu asar kitobxonlar qalbini mana shuncha asrdan beri zabt etib, aqldan hayrat barmog'ini tishlashga majbur qilmoqda! Bundan keyingi avlod kitobxonlari ham sevib o'qishiga ishongan holda ushbu asarni asr oshgan asarlar emas, asar oshgan, oshayotgan hamda oshadigan asarlar sirasiga hech ikkilanmasdan kirgiza olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umar Xayyom. Navro'znoma. "Mehnat". Toshkent-1990.
2. D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent -2007
3. D. Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. "Akademnashr". Toshkent -2013.
4. **www.ziyouz.com** elektron kutubxonasi